O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/3(113)

1997-yildan nashr etiladi

ISSN: 2181-7340
E-ISSN: 3093-9208

Toshkent – 2026

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASH



Nasiba KOBILOVA ,
O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
Moliyaviy resurslarni boshqarish boshqarmasi boshlig'i
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: ushbu maqolada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda boshqaruv samaradorligini oshirish tendensiyalari hamda boshqaruv samaradorligini ta'minlash choralari ko'rib chiqilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda boshqaruv samaradorligini ta'minlashning sanoat o'sishiga ta'siri iqtisodiy baholangan. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida boshqaruv samaradorligini ta'minlash mahsulot sifati va xavfsizligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda korxonalarning bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, sohada yuqori samaradorlikka erishish maqsadida boshqaruv tizimini bir qator ustuvor yo'nalishlar asosida tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *boshqaruv, boshqaruv samaradorligi, sanoat, oziq-ovqat mahsulotlari, ishlab chiqarish sanoati, samaradorlik, sanoat o'sishi.*

Обеспечение эффективности управления в производстве пищевых продуктов

Насиба КОБИЛОВА,
Академия государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан Начальник управления по управлению финансовыми ресурсами
Доктор философии (PhD) по экономическим наукам

Аннотация. В данной статье рассмотрены тенденции повышения эффективности управления в производстве пищевой продукции, а также меры по обеспечению эффективности управления. Проведена экономическая оценка влияния обеспечения эффективности управления в производстве пищевой продукции на рост промышленности.

Обеспечение эффективности управления в процессе производства пищевой продукции является одним из важнейших факторов, способствующих повышению качества и безопасности продукции, оптимизации производственных затрат, а также укреплению конкурентоспособности предприятий на рынке.

С этой точки зрения разработаны предложения по организации системы управления на основе ряда приоритетных

направлений с целью достижения высокой эффективности в данной отрасли.

Ключевые слова: *управление, эффективность управления промышленность, продукты питания, обрабатывающая промышленность, эффективность, промышленный рост.*

Ensuring management efficiency in food production

Nasiba KOBILOVA,
Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan Head of the Financial Resources Management Department Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Annotation. This article examines trends in improving management efficiency in food production, as well as measures aimed at ensuring effective management. The impact of management efficiency in food production on industrial growth has been economically assessed.

Ensuring effective management in the food production process is one of the key factors contributing to improved product quality and safety, optimization of production costs, and strengthening the market competitiveness of enterprises.

From this perspective, proposals have been developed for organizing the management system based on a number of priority areas in order to achieve a high level of efficiency in the sector.

Key words: *management, management efficiency, industry, food products, manufacturing industry, efficiency, industrial growth.*

Yuz berayotgan iqlim o‘zgarishi natijasida insoniyatning kelajakdagi ijtimoiy taraqqiyotini belgilab beradigan muammolar vujudga kelmoqda. Soha vakillarining fikricha, hozirgi globallashuv sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga birgina mamlakat miqyosida erishib bo‘lmaydi, balki butun dunyo bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish, asosiy yo‘nalishlarni belgilash lozim.

Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlarning negizida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda boshqaruv samaradorligini oshirishni ta’minlash vazifalari muhim o‘rinni egallaydi.

Oziq-ovqat sanoatida boshqaruvning eng muhim talablaridan biri - mahsulot xavfsizligini ta’minlashdir. Samarali boshqaruv uchun quyidagi tizimlarni integratsiya qilish shart:

HACCP (Xavflarni tahlil qilish va kritik nazorat nuqtalari): Ishlab chiqarishning har bir bosqichida (xomashyodan tayyor mahsulotgacha) xavflarni aniqlaydi va nazorat qiladi.

ISO 22000 va IFS/BRC: Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarishning xalqaro standartlari bo‘lib, korxonaning ichki jarayonlarini tizimlashtiradi.

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholining turmush tarzi hamda jahon tutgan o‘rni ko‘p jihatdan sanoatga bog‘liq. Chunki, sanoatda nafaqat yuqori qiymatli mahsulotlar

(xomashyolar) ishlab chiqariladi, balki, yuqori maoshli ko‘plab ish o‘rinlari yaratiladi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun texnika-texnologiya va agregatlar aynan sanoat korxonalarida ishlab chiqariladi. Shu boisdan, davlatlar sanoat tarmoqlarini jadal va intensiv rivojlantirishga intiladi.

Bundan tashqari, tobora kuchayib borayotgan oziq-ovqat muammosini hal etishda ham sanoat muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy boshqaruvda inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirish uchun axborot tizimlarini joriy etish zarur.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda boshqaruv samaradorligini oshirish - bu shunchaki texnik jarayon emas, balki insoniy resurslarni yagona tizimga birlashtiradigan strategik, texnologik jarayondir. Bu soha boshqa tarmoqlardan o‘zining qat’iy sanitariya talablari, mahsulotlarning tez buzilishi va inson salomatligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilishi bilan ajralib turadi.

O‘z navbatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi mamlakat sanoatining o‘sishiga iqtisodiy ta’sirini tez sur’atlarda ko‘rsatadigan jarayon hisoblanadi. Xususan, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda joriy yilning yanvar-oktyabr oylari davomida qariyb 519,1 trln. so‘m hajmda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, shundan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi 52,3 trln. so‘mni tashkil etib, jami sanoat mahsulotlarida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 10,1 foizni tashkil etishini ko‘rsatdi [15].

Shu o‘rinda mazkur jarayonni yanada ildam natijalarga olib chiqilishida boshqaruv samaradorligi ko‘rsatkichi muhim ahamiyat kasb etishini alohida ko‘rib chiqamiz.

Birinchi o‘rinda Raqamli boshqaruv va “Aqlli fabrika” (Smart Factory) konsepsiyasidir. Uning afzalliklarini quyidagicha baholash mumkin.

Oziq ovqat mahsulotlari boshqaruv samaradorligini oshirish usullarini zamonaviy ishlab chiqarishda qarorlar «taxminlar» asosida emas, faqat **aniq raqamlar (Big Data)** asosida qabul qilinishi kerak.

Bunda:

Integratsiyalashgan ERP (Enterprise Resource Planning) tizimi: Korxonaning moliya, xarid, ishlab chiqarish, logistika va sotuv bo‘limlarini bir tarmoqqa bog‘laydi. Bu boshqaruvga xomashyo tanqisligi yoki tayyor mahsulotning omborda turib qolishi xavfini oldindan ko‘rish imkonini beradi.

MES (Manufacturing Execution System) - ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish tizimi: Bu tizim sex darajasida ishlaydi. U uskunalarning ishlash unumdorligini (OEE – Overall Equipment Effectiveness), qaysi jarayonlarda to‘xtab qolish bo‘layotganini va quvvat sarfini aniq vaqtda ko‘rsatib turadi.

Raqamli kuzatiluvchanlik (Traceability): Bugungi kunda ushbu yo‘nalishda har bir mahsulot partiyasiga **QR-kod yoki shtrix-kod tizimi** joriy etilgan. Agar bozorda mahsulotdan nuqson chiqsa, tizim soniyalar ichida bu mahsulot qaysi kuni, qaysi smenada, qaysi xomashyodan va qaysi uskunada ishlab chiqarilganini aniqlab beradi. Mazkur jarayonni yanada mukammallashtirish bu ishlab chiqarilgan

mahsulotlarning barchasini emas, faqatgina nuqsonli mahsulotlarni bozordan qaytarib olish orqali millionlab zararning oldini olishga yordam beradi.

Ikkinchi o‘rinda, Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda boshqaruv samaradorligini ta’minlashda sifat va xavfsizlikni menejmenti muhim ahamiyatga ega.

Oziq-ovqat sanoatida sifatni nazorat qilish emas, **sifatni boshqarish** ustuvor bo‘lishi shart. Mahsulot tayyor bo‘lgandan keyin undan nuqson qidirish - bu zarar. Maqsad - mahsulotning nuqsonli bo‘lib chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik.

HACCP va FSSC 22000 tizimlarining amaliy faoliyatini ta’minlash: Ko‘pchilik korxonalarda mazkur standartlarning talablari ayrim hollarda amaliy jarayonlarga yetarlicha integratsiya qilinmaydi. Samarali boshqaruvda esa **Kritik Nazorat Nuqtalari (KNN)** har bitta mahsulotning sifatini nazorat qilish tartibini ilgari suradi. Masalan, sutni pasterizatsiya qilish harorati yoki go‘shtni muzlatish darajasi avtomatik datchiklar orqali nazorat qilinadi va me’yordan yuqori yoki past bo‘lgan holatlarda tizim ishlab chiqarishni avtomatik to‘xtatadi.

Kirish nazorati. Bu nazorat asosan xomashyo yetkazib beruvchilarga tatbiq etilib, ular qat’iy reyting asosida baholanadi. Sifatsiz xomashyo olib kelgan ta’minotchi bilan shartnoma shu zahoti bekor qilinadi. Chunki sifatsiz xomashyo mahsulot sifatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Uchinchi o‘rinda, shu o‘rinda muhim jihatlaridan biri bu - ortiqcha xarajatlarni yo‘qotish (Lean Production – Tejamkor ishlab chiqarish). Bizga ma’lumki, oziq-ovqat sanoatida marja (foyda foizi) ko‘pincha yuqori bo‘lmaydi, shuningdek, Oziq-ovqat mahsulotlarining saqlash muddati nisbatan qisqa bo‘lib, ularda buzilish va sifat ko‘rsatkichlarining pasayishi xavfi yuqori hisoblanadi. Shuning uchun foydani ichki yo‘qotishlarni kamaytirish hisobiga oshirish mumkin. Lean tizimi oziq-ovqat sohasida 8 turdagi asosiy yo‘qotishlarni kamaytirishga qaratilgan tizim hisoblanadi.

Ushbu tizimning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilarni ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Ortiqcha ishlab chiqarish - bozor talabidan ko‘p mahsulot chiqarish hisoblanadi. Ushbu jarayonda mahsulotlarning talabdan yuqori qismining muddati o‘tib, buzilishiga olib keladi. Boshqaruv jarayonida mazkur holatning oldini olish uchun sotuv prognozi bilan ishlab chiqarish hajmini o‘zaro muvofiqlashtirish zarur.

Kutishlar - xomashyoning o‘z vaqtida yetkazib berilmasligi yoki uskunalarda yuzaga keladigan nosozliklar sababli ishlab chiqarish jarayonining to‘xtab qolishidir. Natijada ishchilarning bekor turib qolishi va ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi kuzatiladi. Mazkur jarayonda SMED (tezkor sozlash) usulidan foydalanish uskunalarni bir mahsulot ishlab chiqarishdan boshqasiga moslashtirish vaqtini qisqartirish imkonini beradi.

Transport va harakatlar jarayonida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi uskunalarining (sex) noto‘g‘ri joylashuvi sababli yarim tayyor mahsulotlarni uzoq masofaga tashish jarayoni. Bunda, ishlab chiqarish «oqim» usulidan foydalanish

asosida ya'ni mahsulotni faqat oldinga harakat qiladigan qilib loyihalashni tashkillashtirish orqali hal etish lozim bo‘ladi.

To‘rtinchi o‘rinda, Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni saqlash sharoitlarini yaxshilash, zamonaviy ombor va logistika boshqaruvini tashkil etish ham muhim hisoblanadi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, oziq-ovqat mahsulotlarining saqlash muddati kam muddatni tashkil etadi oqilona logistika boshqaruvi esa samaradorlikning yarimi demakdir.

Oqilona logistika boshqaruvini tashkil etishdayam bir nechta usullarni ko‘rib chiqishimiz mumkin.

FEFO (First Expired, First Out) usuli, bunda, ombordan birinchi navbatda oldinroq ishlab chiqarilgan emas, balki **yaroqlilik muddati tugashiga oz qolgan** mahsulotni sotuvga olib chiqish lozim bo‘ladi. Bu WMS (Omborni boshqarish tizimi) orqali avtomatik boshqariladi.

Dispetcherlash va sovuq zanjir (Cold Chain) usuli, bunda, tez buziluvchi mahsulotlarni tashuvchi mashinalarga GPS va harorat datchiklari o‘rnatilishi lozim bo‘ladi. Markaziy boshqaruv ofisi mashina ichidagi haroratni yo‘lda kuzatib boradi. Agar muzlatkich buzilsa, yuk manzilga yetib bormasidan oldin chora ko‘riladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 9-sentyabrdagi PQ-4821-son qarori [1]ning ijrosini ta'minlash hamda oziq-ovqat sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha yangi tashkil etilayotgan istiqbolli loyihalarni yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-yanvardagi 37-sonli qarori [2] qabul qilindi. Unga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘nalishida yangi tashkil etilayotgan istiqbolli loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishini tayyorlash hamda yangi loyihalarning infratuzilmasini yaratish, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish va chuqur qayta ishlash sohasini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash hamda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatini yanada rivojlantirish sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusi dolzarb muammolardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatini yanada rivojlantirish hamda shu orqali umumiy sanoatning rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga erishish borasida ko‘plab olimlar tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda boshqaruv samaradorligini ta'minlash va oshirish bo‘yicha ham jahon miqyosida, ham O‘zbekistonda juda keng qamrovli ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilgan va izchil davom ettirilmoqda. Bu mavzu iqtisodiyot, menejment va oziq-ovqat xavfsizligi

sohalarining tutashgan nuqtasi sifatida doimiy ravishda olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Ilmiy tadqiqotlar asosan ikkita katta yo‘nalishga bo‘linadi: **iqtisodiy-strategik boshqaruv va texnologik-operatsion boshqaruv.**

Jumladan, xorijiy olimlardan: erkin raqobatni shakllantirish asosida mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha L.N. Shapkina [3], N.X. Sadekova [4], oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishi uchun raqobat salohiyatini oshirish masalalari bo‘yicha A.A. Ulyanov [5] va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari bo‘yicha O.N. Beketova [6]lar ilmiy tadqiqot olib borishgan. Jumladan, N.X. Sadekova fikricha, “aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash masalasini hal qilish bo‘yicha ishlab chiqarish sanoatiga alohida e’tibor qaratish lozim”, A.A.Ulyanovning fikricha esa “oziq-ovqat sanoatining rivojlanish darajasi haqli ravishda aholi turmush darajasini va iqtisodiy rivojlanish samaradorligini tavsiflovchi ijtimoiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi”, O.N.Beketovaning fikricha, “so‘nggi o‘n yillikda jahon oziq-ovqat bozoridagi barqaror tendensiya ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqishning yuqori dinamikasi kuzatilganligini oziq-ovqat sanoati korxonalarining muvaffaqiyatli strategiyalarning natijasi sifatida e’tirof etish mumkin”.

Mamlakatimizda ushbu soha Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kabi yetakchi muassasalar olimlari va doktorantlari tomonidan ham o‘rganiladi.

Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish asosida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida V.Glinskiy, L.Serga, M.Alekseev, N.Samotoy va E.Simonovalar [7] ilmiy izlanish olib borgan bo‘lsa, M.D. Earle va R.L. Earle [8]lar oziq-ovqat sanoati tadqiqotlari va ishlanmalari bilan shug‘ullanishgan. Shuningdek, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning yangi strategiyalari bo‘yicha C.N.Aguilar va boshqalar [9] tadqiqot olib borishgan. Xususan, V.Glinskiy va boshqalar fikricha, “Oziq-ovqat sanoati – oziq-ovqat xavfsizligining asosidir. Oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish davlat boshqaruvining strategik muhim vazifasidir. Zero, global inqiroz, jahon iqtisodiyotidagi notinchlik, beqaror siyosiy vaziyat sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash mamlakat barqaror rivojlanishi va uning xavfsizligini ta’minlashning eng muhim shartidir”, M.D. Earlelar fikrlaricha, “Oziq-ovqat sanoati har doim har qanday mamlakat sanoat bazasi va eksport salohiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. So‘nggi paytlarda oziq-ovqat bilan bog‘liq xavotirlar tobora kengayib bormoqda, bu ochlik, ifloslanish muammolari va zamonaviy oziq-ovqat texnologiyasining murakkabligi kabi muammolar tufayli faollashmoqda”.

O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish bo‘yicha N. Olimova, A.Yo‘lchiyev [10]lar tadqiq qilgan bo‘lsa, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste’mol qilishga ta’sir qiluvchi omillarni Z.X. Madaminov, L.Sh. Abdukaxxorov va N.U. Alijonova [11]lar ilmiy jihatdan


o‘rganishgan. Jumladan, N. Olimova va A.Yo‘lchiyevlarning fikricha, “Oziq-ovqat sanoati korxonalarining holati to‘g‘risida ishlab chiqarishdan tortib to iste’mol qilishgacha bo‘lgan jarayonlarni mantiqiy ketma-ketlikda o‘rganish orqali Respublikamizda oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi”.

Bundan tashqari, oziq-ovqat sanoati tarmog‘ining ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish bo‘yicha X.N. Sabirov [12], mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish salohiyatini baholash bo‘yicha I.Yu. Umarov [13], shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlarini O.Mamadiyorov [14] ilmiy tadqiqot olib borgan. Shu jumladan, X.N.Sabirovning fikricha, “... tahlillarga ko‘ra, oziq-ovqat sanoatidagi ishchilar soni va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi ishlab chiqarish hajmiga ijobiy ta’sir qilmoqda. Demak, yaqin kelajakda yangi korxonalar tashkil qilib ishchi o‘rinlari yaratish orqali va investitsiyalar hajmini oshirish orqali ushbu sanoatda yaratilayotgan mahsulot hajmini oshirish potensiali mavjud”.

Yuqoridagi tadqiqotlarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha masalalar ilmiy o‘rganilgan bo‘lsa-da, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishida boshqaruv samaradorligini ta’minlashning sanoat o‘sishiga ta’sirini iqtisodiy baholash masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Shu boisdan ushbu mavzu tadqiqot uchun tanlab olindi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida rasmiy statistik ma’lumotlarni o‘rganish va qayta ishlash, statistik kuzatish, qiyosiy va solishtirma tahlil, sintez, guruhlash hamda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalarni tizimlashtirish va ularni ko‘rgazmali ifodalash maqsadida statistik jadvallar hamda grafik usullar qo‘llanildi. Tahlilning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan e’lon qilingan rasmiy statistik ma’lumotlar tashkil etdi.



1-rasm. 2022-yilda O‘zbekiston YAIM tahlili

Tahlil va natijalar

2022-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi 888 341,7 mlrd so‘mni tashkil etgan. 2021-yilda esa ushbu ko‘rsatkich 738 425,2 mlrd so‘mga teng bo‘lgan. Natijada 2022-yilda YAIMning 2021-yilga nisbatan o‘sish sur’ati 105,7 foizni tashkil etgan.

YAIM tarkibining 93,2 foizi iqtisodiyot tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hisobiga shakllangan. Xususan, tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati 828 054,2 mlrd so‘mni tashkil etib, uning 208 452,9 mlrd so‘mi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligiga, 276 227,0 mlrd so‘mi sanoat, shu jumladan qurilish tarmog‘iga, 343 374,3 mlrd so‘mi esa xizmatlar sohasiga to‘g‘ri kelgan (1-rasm).

Tarmoqlar kesimida yalpi qo‘shilgan qiymat tarkibi tahlil qilinganda, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi 25,1 foizni, sanoat va qurilish tarmoqlarining ulushi 33,4 foizni, xizmatlar sohasining ulushi esa 41,5 foizni tashkil etgani ko‘rinadi. Mazkur ko‘rsatkichlar xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymatni shakllantirishda nisbatan yuqori ulushga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Keltirilgan tahlil natijalari ishlab chiqarish tarmoqlarida, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish va boshqaruv samaradorligini oshirish iqtisodiy natijadorlikni yanada yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Samarali boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish ishlab chiqarish hajmini oshirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda tarmoqning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqotdan kelib chiqib aytish kerakki, Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish boshqaruv sifati va xodimlarning mas’uliyatiga bevosita bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, inson kapitalini rivojlantirish va xodimlarni motivatsiyalash boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omillari sifatida qaralishi lozim.

Korxona boshqaruv xodimi yoki oddiy ishchining maoshi faqat “ishga kelib-ketgani” uchun emas, balki nuqsonli mahsulot foizining pastligi, to‘xtab qolishlar vaqtining kamligi, sanitariya qoidalariga rioya qilinishi kabi KPI samaradorlik ko‘rsatkichlariga bog‘lanishi kerak.

Mutaxassis kadrlarni to‘g‘ri tanlay bilish va ularning o‘z ish joylarini yaxshilash bo‘yicha yoki mahsulotni sifatli ishlab chiqarishni tashkil etish yuzasidan taklif berish imkonini berish va bu taklif iqtisodiy foyda keltirsa, ushbu mutaxassisni mukofotlash orqali boshqa xodimlarni ham ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga munosib hissa qo‘shishga rag‘batlantirish lozim hisoblanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish sanoatini izchil rivojlantirish sanoat o‘sishini rag‘batlantirish bilan bir qatorda, mamlakatda oziq-ovqat xavfsiz-ligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatini yanada rivojlantirishda quyidagi yo‘nalish-larga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

• oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini o‘zaro kooperatsiya asosida birlashtirib, sanoat klasterlarini shakllantirish hamda sinergetik samara hisobiga tarmoq korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish;
• oziq-ovqat sanoati korxonalarini tashkil etish va joylashtirishda xomashyo bazasi, infratuzilma imkoniyatlari, xususan, logistika tizimi va energiya ta’minoti omillarini inobatga olish orqali korxonalarning optimal joylashuvini ta’minlash va noishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish;
• oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini omillar unumdorligining pasayib borish qonuniyati nuqtayi nazaridan muntazam tahlil qilish, samaradorlikni cheklovchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish orqali ishlab chiqarish natijadorligini maksimal darajaga yetkazish;
• ishlab chiqarishni faqat ichki bozor ehtiyojlariga yo‘naltirish bilan cheklanmasdan, tashqi bozorlar va eksport imkoniyatlarini ham hisobga olgan holda mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish hamda ishlab chiqarish ko‘lami samarasidan keng foydalanish.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatdiki, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati mamlakat sanoati o‘sishini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Shu boisdan, oziq-ovqat ishlab chiqarishda boshqaruv samaradorligini oshirish o‘zaro bog‘liq jarayonlarning **uzluksiz tizimini** shakllantirishni talab etadi. Agar sotuv bo‘limi bozorni noto‘g‘ri prognoz qilsa, ombor to‘lib qoladi, ombor to‘lsa, ishlab chiqarish to‘xtaydi, ishlab chiqarish to‘xtasa, uskunalar bekor turib korxona zararga kiradi. Shu sababli, samaradorlikka faqatgina barcha jarayonlarni raqamli tizim (ERP/MES) orqali birlashtirish va xodimlarda shaxsiy mas’uliyatni shakllantirish orqali erishiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatini yanada rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli strategiyalarni shakllantirishda tarmoq korxonalarini hududlar kesimida maqbul joylashtirish, ularni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, imtiyoz va preferensiyalar ko‘lamini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, korxonalarni zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish jarayonida transport va tashkiliy xarajatlarni subsidiyalash amaliyotini kengaytirish, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq infratuzilma obyektlarini rivojlantirish ham ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur chora-tadbirlarni o‘zaro muvofiqlashtirilgan va tizimli tarzda amalga oshirishda zamonaviy boshqaruv tizimlarini samarali joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv mexanizmlarini to‘g‘ri tashkil etish ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish va tarmoq faoliyati samaradorligini yuksaltirish imkonini beradi. Natijada mamlakat sanoatining jadal rivojlanishiga ko‘maklashish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar shakllanadi.

References

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining-2020-yil 9-sentyabrdagi «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta’minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-4821-son qarori. https://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining-2022-yil 20-yanvardagi «Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi 37-sonli qarori. https://lex.uz
3. Шапкина Л.Н. Качество производства продуктов питания // Журнал “Вестник университета”. – 2012. 78-84 с.
4. Садекова Н.Х. Развитие пищевой промышленности России в условиях импортозамещения // Продовольственная политика и безопасность.- 2016. Т. 3.- № 2.- с. 77-90.
5. Ульянов А.А. Конкурентный потенциал устойчивого развития пищевой промышленности. Канд.экон.наук. дисс. СГСЭУ.– 2008.
6. Бекетова О.Н. Современные тенденции развития пищевой промышленности РФ: национальный и региональный аспекты // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. ISSN 1999-2645.- №4 (48). 2016. 45-56 с.
7. V.Glinskiy, L.Serga, M.Alekseev, N.Samotoy ва E.Simonova. The Development of the Food Industry as a Condition for Improving Russia’s National Security // Procedia Manufacturing. Volume 21, 2018, Pages 838-845
8. Earle, M.D., Earle, R.L. (1997). Food Industry Research and Development. In: Wallace, L.T., Schroder, W.R. (eds) Government and the Food Industry: Economic and Political Effects of Conflict and Co-Operation. Springer, Boston, MA. https://doi.org/10.1007/978-1-4615-6221-4_8
9. Aguilar C.N. and other. Emerging strategies for the development of food industries // Bioengineered. Volume 10, 2019 - Issue 1: pp. 522–537.
10. Olimova N.Kh., Yulchiev A.O. Prospects For The Food Industry Development Of Uzbekistan // Журнал “Ceteris Paribus”. 2021. Pp. 8-11.
11. З.Х. Мадаминов, Л.Ш. Абдукаххоров ва Н.У. Алижонова. Озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ва истеъмол қилишга таъсир қилувчи омиллар // Журнал “Academic research in educational sciences”, Volume 3, Issue 5, 2022. 88-93 б.
12. Sabirov X.N. Oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish hajmini modellashtirish // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil. 125-132 б.
13. Umarov I.Yu. O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish salohiyati // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2018 y. 1-8 b.
14. Mamadiyorov O. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari // International Journal of Finance and Digitalization. Vol. 2 Issue 01, 2023. 1-11 б.
15. https://stat.uz